

4. Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

3. Darsni yakunlash va baholash:

Alisher Navoyi haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

Darsda sizga nima qiziq bo'ldi?

 **Uyga vazifa:** Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
Hikmatlardan yod oling.

15-mavzu: Adolatli shoh va buyuk shoir

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni "Boburning ustozlari" rivoyati bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: buyuk bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: og'zaki nutqini va lug'at boyligini oshirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, „O'gitlar sandig'i“.

Darsning blok chizmasi:

1. Kirish qismi (tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

- Mavzu nomi e'lon qilinadi.

- Tashkiliy savollar beriladi.

- Qizitish bosqichi: **“Yaxshi xotiralar” o'yini**

O'quvchilar doskaga taklif qilinadi va hamma bir-birining ortiga saflanib turadi. Ularning qo'llariga qog'oz va ruchka beriladi. Hamma tik turgan holatda bir-birining orqa kurak qismida sinfdoshini yaxshi tomonlarini ta'riflab yozadi va o'quvchilar bir-birlariga o'girilib, estalik uchun ta'riflangan o'quvchining o'ziga topshiradilar.

Masalan, “Komila, sen judayam aqlli va mehribon qizsan” deb uning ortidagi dugonasi unga tayangan holda yozadi va o'ziga topshiradi.

O'yinni o'tirgan holatda partadoshlar bir-birini ta'riflagan holatda ham o'tkazish mumkin. Bu o'qituvchining erkin yodashuviga bog'liq.



-Mavzuga qiziqtirish: ***“So‘zlar juftligi” mashqi***

Juftlashib kelgan so‘zlarni aniqlang.

MIRBOZOBUR

- O‘tilganlarni takrorlash:

“Oqilona javob” rivoyatining mazmuni so‘zlab beriladi. Hikmatlardan yoddan ayttiriladi.

2. Darsning asosiy qismi:

☒ **Amaliy topshiriq.** So‘zlarning birinchi bo‘g‘inidan yangi so‘z hosil qiling.


BOLA BURGUT

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1.Sizda qaysi so‘z hosil bo‘ldi?

2.Bu so‘z haqida nima deya olasiz?

☒ **Mavzuni tushuntirish.** Zahiriddin Muhammad Bobur haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda tavallud topgan. Bobur degan nom “yo‘lbars” yoki “sher” degan ma‘noni anglatib, jangdagi jasorati uchun berilgan edi.

Otasi- Umarshayx Mirzo, Onasi- Qutlug‘ Nigorxonim

☒ **Matn ustida ishlash.** Muallif haqida ma‘lumot beriladi.

To‘lqin Hayit Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi Dashnobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning “Meni kechir, bolajon” “Dashnobod xangomalari”, “Vafo malikasi”, “Qora Shahzoda” asarlari nashr etilgan.

☒ “Boburning ustozlari” asari o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi.

Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Hikoya kim haqida ekan?
2. Nega Boburning ustozlari saroyga xomush holatda kirib kelayotgan edi?
3. Boburning ustozlari haqida nima deya olasiz?
4. Hikoyada qaysi allomalarning nomi tilga olingan?
5. Nima uchun Umarshayx Mirzoning ko‘ngli sevinchga to‘ldi?


Lug‘at ishi o‘tkaziladi.

arjumand–aziz, qadrli, qimmatli

ojiz–kuchsiz

padari buzrukvor–ota

 **Mashq daftari bilan ishlash.** Doiradagi harflarni to‘g‘ri joylashtirib o‘qilsa, Bobur tarixiy asari qanday nomlanishini bilib olashadi.(Boburnoma)



O'quvchilarga asar haqida qisqacha ma'lumot beriladi:

"Boburnoma" – Boburning tarixiy asaridir. Asarda Bobur hayotining barcha voqealari, uning harbiy yurishlari tasvirlangan.

Rivoyat matnidan foydalanib, gaplarni to'ldiriladi.

Umarshayx Mirzo o'rnidan turib katta-katta qalin **kitoblarga** ko'z yugurtirdi. Ular **Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Arastu, Pifagor, Ahmad Yassaviyning** devonlari ekanini ko'rib yengil tortdi. Zahiriddin Muhammad Boburning ota va onasining ismlarini yoziladi.

Qo'shimcha ma'lumot sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning ijodidan parcha o'qib beriladi va muhokama qilinadi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

3. Darsni yakunlash va baholash:

-Bugun darsda Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nimalarni bilib oldik?

 **Uyga vazifa:** Hikoyani o'qing mazmunini so'zlab bering. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni topib yozing.

16-mavzu: Qatag'on qurbonlari xotirasi

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Zahro Hasanovanning "Manguga muhrlanganlar yodi" hikoya mazmuni bilan tanishtirishyu

Tarbiyaviy maqsad: jadid bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: xulosa va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, tarqatmalar